




**SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**SAMARQAND
VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

**2022- YIL YANVAR
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar oyida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 1 467,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 109,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 94,5 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan sanoat– 9,0 %, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning– 32,6 % ga o'sishi kuzatildi.


Shuningdek, Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash - 38,4 % ga hamda Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 15,1 % ga pasayish kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2022-yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar

FHI,% da



2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 387,7 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,5 % ini tashkil etdi.

2021-yil yanvar


92,8 %

2022-yil yanvar

94,5 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2021- yilning yanvar oyida – 0,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 9,6 % (17,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 14,8 % (10,2 %) va quyi texnologiyali – 69,7 % (64,6 %)ni tashkil etdi.

■ 2021- yil ■ 2022- yil




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 3,4 % (2021- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi - 83,8 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 9,4 % (2021- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 187,0 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 32,7 % (2021- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi - 123,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 38,9 % (2021- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi - 98,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 2,4 % (2021- yil yanvar oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 90,3 %) ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Po‘lat quvurlar




O‘simlik yog‘i (tozalangan)




Sement




Tamaki



Pivo



Yumshoq bug‘doy va spelta uni




2022- yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda Aroq – 255,8 ming litr 100 % spirt (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan 84,7 % ga pasaygan), 53,4 ming tonna paxta tolasi (94,4 %)da ishlab chiqarish pasayishi sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar	2022- yil yanvar	2021- yil yanvar oyiga nisbatan o'sish, % da
Paxta tolasi, ming tonna.	4,7	6,9	144,8
Pivo, ming litr	896,0	601,0	67,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	14,8	14,2	95,6
O'simlik yog'i (tozalangan) tonna	4800	1520	31,6
Konyak spirti – litr 100 % spirt	64,0	96,2	66,5
Tamaki, mln dona	608	502	82,6
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna.	48,1	50,1	104,1
Paxta tiviti tonna	514,0	971,8	189,1

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida metallurgiya sanoati ulushi 6,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 147,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 9,4 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 187,2 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 130,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 1,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 118,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, mashina va uskuna-lardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 101,8 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 19,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 106,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 117,9 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 423,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 24,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 108,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 127,0 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 385,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish sanoati




2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 109,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,6 %, fizik hajm indeksi 105,9 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 50,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish


2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 32,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi 94,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 14,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 59,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,1 % ini) tashkil etdi. 2022- yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 132,6 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar	2022- yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	0,19	0,25	0,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	6,4	2,0	-4,4

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar	2022- yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	3 093,7	3 200,4	106,7
Xavsiz chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	1694,5	1347,8	-346,7
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	8 238,7	7 949,2	-289,7

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 103,4 % ni va Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar- 3,5 (%) ga kamayganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 102,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 124,9 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 75,1 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar

35,3%

2022- yil
yanvar

32,0%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil
yanvar

64,7%

2022- yil
yanvar

68,0%


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,7 % (2021- yil yanvar oyida 0,7 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 44,3 % ni, Urgut tumani 11,7 % ni, Samarqand tumani 9,6 % ni, Jomboy tumani 5,9 % ni hamda Ishtixon tumani 5,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (124,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Ishtixon tumanida (310,1 %) hamda Kattaqo'rg'on tumanida (289,3 %) qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 38,0 % shuningdek, Urgut 10,5 %, Samarqand 9,3 % ni, Toyloq tumanlarida 8,2 % ni tashkil etdi.



682,2 mlrd. so'm
2020- yil yanvar

882,4 mlrd. so'm
2021- yil yanvar

1 102,0 mlrd. so'm
2022- yil yanvar



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 49,8 % shuningdek, tumanlardan Urgut 15,6 %, Ishtixon 7,3 % ni, hamda Samarqand tumani 6, % ni tashkil etdi.

443,7 mlrd. so'm


2020- yil yanvar

579,2 mlrd. so'm

2021- yil yanvar

749,1 mlrd. so'm

2022- yil yanvar



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

01

2020- yil

108,6 %

02

2021- yil

101,0 %

03

2022- yil

131,2 %

Kattaqo'rg'on sh.

41,3

3,6

Samarqand sh.

132,3

373,2

Toyloq

96,1

15,3

Urgut

102,9

116,9

Nurobod

62,3

3,9

Samarqand

137,8

49,6

Paxtachi

93,7

30,5

Pastdarg'om

163,7

33,3

Payariq

108,4

5,9

Narpay

220,1

14,0

Qo'shrabot

45,3

1,0

Kattaqo'rg'on

342,0

22,8

Ishtixon

334,3

55,0

Jomboy

143,2

10,4

Bulung'ur

178,6

8,3

Oqdaryo

85,1



5,3

o'sish sur'ati


mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 39,2 % ni, shuningdek, Urgut tumani 14,5 % ni, Toyloq tumani esa 9,0 % ni tashkil etdi.



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi



Samarqand viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatning jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 41,8 % ni, shuningdek, Jomboy tumani 13,3 % ni, Urgut tumani esa 9,9 % ni tashkil etdi.

Samarqand viloyati

2020- yil

1 082,3 mlrd. so'm

2021 yil

1 257,3 mlrd. so'm

2022- yil

1 467,7 mlrd. so'm



2020- yil

101,0 %

2021- yil

107,2 %

2022- yil

109,7 %

Kattaqo'rg'on sh.

53,0
10,3

Samarqand sh.

98,2 612,9

Toyloq

75,4
55,6

Urgut

101,3
145,0

Nurobod

73,8
6,0

Samarqand

114,8
119,8

Paxtachi

87,1
34,9

Pastdarg'om

115,2
53,2

Payariq

146,2
42,5

Narpay

108,8
44,0

Qo'shrabot

90,4
3,0

Kattaqo'rg'on

144,2
45,5

Ishtixon

115,3
59,5

Jomboy

140,5
195,1

Bulung'ur

108,7
24,1

Oqdaryo

70,8
16,3

FHI, % da

mlrd. so'm

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 563,6 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 38,4 % ni tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bulungʻur tumanida (100,0 %), Qoʻshrobot tumanida (100,0 %), Nurobod tumanida (100,0 %), Kattaqoʻrgʻon shahrida (100,0 %), Oqdaryo tumanida (71,2 %), Urgut tumanida (69,4 %) tashkil etdi.



Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Ishtixon tumanida (12,7 %), Narpay (13,2 %), Paxtachi (20,7 %), Toyloq (29,4 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Samarqand vloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatimizda 8 137 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 715 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 21,1 %) Samarqand shahriga, 1 170 tasi (14,4 %) Urgut tumaniga, 767 tasi (9,4 %) Samarqand tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan

2020-yil
116 dona

2021- yil
143 dona

2021- yil
128 dona



Jami faoliyat yuritayotgan

2020- yil
6 076 dona

2021- yil
7087 dona

2022- yil
8 137 dona

yangi tashkil etilgan

faoliyat yuritayotgan